QASHQADARYO VILOYATI
SHAHRISABZ TUMANI HOKIMINING
Q A R O R I

181302, Shahrisabz shahri, Fusunkor ko‘chasi 86-uy, tel/faks: 75-522-02-25

2024 - yil 1 - iyun 141-4-67-Q/24 Shahrisabz tuman hokimligi

Shahrisabz tumanida maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish yuzasidan tumandagi umumta’lim muassasalarining mikrohududlarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risida”gi Nizomning 39-bandiga asosan tumanda maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga qamrab olish jarayonida umumta’lim muassasalariga biriktirilgan hududlar (mikrohudud)ni aniq belgilab olish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining 27-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentabrdagi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 25- moddasiga asosan

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Shahrisabz tumanida maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish bo‘yicha umumta’lim muassasalariga biriktirilgan hududlar (mikrohudud) ro‘yxati ilovaga asosan tasdiqlansin.

2. Tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (Sh.Botirov)ga, tumandagi umumta’lim muassasalari rahbarlari zimmasiga maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish, o‘quvchilarning darslarga qatnashish holati yuzasidan monitoring olib borish va uning natijasida aniqlangan muammolarni bartaraf etish bo‘yicha zarur choralar ko‘rish vazifasi topshirilsin.

3. Tumandagi umumta’lim muassasalar rahbarlari o‘zlari rahbarlik qilayotgan muassasaga biriktirilgan hududdagi maktab yoshidagi bolalarini o‘z vaqtida umumta’lim muassasasiga o‘qishga jalb qilish uchun mas’ul hisoblansin.

4. Mazkur qaror tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin va e’lon qilinsin.

5. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

6. Shahrisabz tuman hokimining 2022-yil 22-iyundagi 155-4-67-Q/22-sonli “Shahrisabz tumanida maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish yuzasidan tumandagi umumta’lim muassasalarining mikrohududlarini belgilash to‘g‘risida”gi qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

7. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy masalalari bo‘yicha o‘rinbosari zimmasiga yuklatilsin.

Shahrisabz tumani hokimi **S.A.Xasanov**

Shahrisabz tuman hokimining
2024-yil 1-iyundagi
141-4-67-Q/24-son qaroriga
1-ilova

